

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



***Journal of Preschool  
Education***

***The faculty of pre-school  
education***

## DIDAKTIK O'YINLAR YORDAMIDA MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGILIZ TILINI O'RGATISH.

Keldiyorova Madinabonu Maqsud qizi  
O'zbekova Dildora  
Email addskeldiyorovamadinabonu@gmail  
Tel nomer: +998931406762.

**Anatatsiya** :O'yin turlari, bolalarga ingiliz tilini o'rgatishdan maqsad, o'yin texnologiyalari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlari:** o'yin,metodlar, amaliy mashg'ulotlar, o'yin turlari, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, va hokzo.

**Анататсия:** описаны виды игриб цело обучения ребенка английскому языкуб представления об игровых технологиях

**Ключевые слова:** игра , метод ,виды игра, дидактические игра , подвижные игрыю.

**Anatation :** The tyypes of games, the purpose of teaching engilish language to a child, ideas abaut game technologies are described.

**Keywords:** game, method, types of games, didactic games, action games.

Jonajon ona vatanimiz O'zbekiston mustaqillika erishgach barcha ta'lim sohalarida tubdabdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz aytganidek yurtimiz kelajagi yoshlар qo'lida ,albatta yoshlарimizni kelajagda buyuk va barkamol yetuk shaxs bo'lib yetishlarida yoshlikdan bilim ,ko'nikma va malakalarni chuqur va puhta o'zlashtirishlari kerak bu o'rinda bolalarni ilk va maktabgacha ta'lim yoshdan boshlab kerakli bo'lgan barcha bilimlarni berishimiz zarurdir. Buyuk allomalarimiz yoshlikda berilgan bilim toshga o'yilgan naqshdir deb bejiza aytishgan emas, sababi ilk va maktabgacha yosh davrida bolalarning xotirasi juda mustahkam ,va berilgan bilimlarni bir zumda esida saqlab qoladigan va qiziquvchan bo'ladilar. Bugungi kunda yoshlарimiz o'rtasida tilga bo'lgan ishtiyoqiva qiziqishlari kuchayib bormoqda ,hozirgi kunga kelib jahin tillaridan biri ingiliz tilini o'rganish yoshlarmiz o'rtasida avj olgan desak mubolag'a bo'lmaydi , ingiliz tilini nafaqat maktab , kolleij va oily ta'lim muassassalarda balki maktabgacha talim tashkilotlarida ham o'rgatilmoque . Umuman olganda chet tilini o'rganish oson emas albatta til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq hisoblanadi negaki ilk va maktabgacha yosh davrida bolalar juda ham quvnoq ,barcha narsaga qiziqishi baland,xotirasi mustahkam bo'ladi shuning uchun

bolalar yoshlik davrlarida nafaqat ingiliz tili , boshqa bir necha tillarni ham o'rganib olishi oson kechadi.Pisixolog rus olimlarimizning fikricha , bolalar kattalarga nisbatan, tilni tez va oson o'zlashtiradilar bu fanda ham o'z isbotini topgan albatta. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ingiliz tilini o'rgatishda tarbiyachi juda ham qiziqarli bo'lgan metodlarda, usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarga ingiliz tilini o'rgatishda o'yin texnologiyalardan foydalanib mashg'ulotni tashkil etsa dasr juda ham qiziqarli va bolalarni tilni o'rganishga bo'gan qiziqishlarini oshirish mumkin. Ingiliz tili o'qtuvchisi va tarbiyachi birgalikda hamkorlikda ish olib borsa maqsadga muvofiqdir. Bolalarga tilni o'rgatishda tarbiyachi o'yin tanlashda adashmaslik zarur, tanlangan o'yin metodi bolalarning yosh xususiyatlariga tuloqonli mos kelishi kerak . Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarga ya'ni 3 – 4 yoshdagi bolalarga ingiliz tilini o'rgatishda turli hil ingilizcha qo'shiqlardan va sherlardan foydalanish mumkin .Masalan kichik yoshdagi bolalarga ingiliz tili alifbosini og'zaki o'rgatganimizdan tashqari ,alifboni qo'shiq tarzida o'rgatsak ham yaxshi samara beidi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ingiliz tilini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish yuqori natija bermoqda zamonaviy texnologiyadan foydalangan holda bolalaga ingiliz tili alifbosining audiyo, video roliklardan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etsak bolalarning xotirasida yaxshi saqlanib qoladi va tilni ham tezroq o'rganib oladilar, bundan tashqari sonlarni ham shu tarzida o'rgatish mumkin .Mashg'ulot jarayonida bolalarga jismoniy daqiqalarni qisqa o'yinlar, ingiliz tilidagi sherlarni aytish orqali bolalar diqqatini jalb qilishimiz mumkin. Katta va tayyorlov guruh bolalariga ingiliz tilini o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanamiz .Didaktik o'yin o'zi nima? Didaktik o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning o'yin usuli ya'ni ta'limiy o'yinlardir. Biz bilamizki didaktik o'yin turlari ko'p ,predmetlar , o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan, so'z o'yinlari va hokozo .Katta yoshdagi bolalarga ingiliz tilini o'rgatishda predmetli o'yinlardan foydalangan ma'qul,masalan katta yoshdagi bolalarga hayvonlar ma'vzusini o'rgatmoqchi bo'lsak dastla barcha bolalarga hayvonlarni tanishtrib u haqidagi ma'lumotlarni , berib olamiz va mashg'ulotning amaliy qismiga o'tib bolalar bilan "Meni top " nomli didaktik o'yinini o'ynaymiz bunda bolalar ikki kichik guruhga bo'linadilar va tarbiyachi har bir bolaning qo'liga hayvonlarni ko'rinishi ifodalangan rasm, yoki o'yinchog'ini beradi,va tarbiyachi bolalarda uzoqda turadi va hayvonlar nomni aytadi masalan : cat (mushuk ) yoki( dog, cow, pig,va hokozo )deydi shu payti har ikkala guruhdagi bola tarbiyachining oldiga borshi va u hayvon ozoqlanadigan ozuqani olib joylariga turib olishlari kerak bo'ladi o'yin shu tarzida davom etadi . Bu o'yinda bolalar hayvonlar nomlarni

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

ingiliz tilida qanday nomlanshlarni biladilar va bolada jismoniy sifatlar ham rivojlanib bolaning aqliy tarbiyasi oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Sodiqova. Maktabgacha pedagogika. Darslik, Toshkent 2013.
2. O'zbekiston Respublikasi SH.M.Mirziyayev, 2017 – 2021 yilda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori .
3. Asqarova. M Kichik yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish.
4. O'zbekiston Respublikasi mакtabgacha ta'lim to'g'risidagi nizom Maktabgacha tarbiya T 2000 1 son.